Registered in Germany **Europa Revue Journal**
ISSN: 1862-6564 **Vol. 6 No. 5 (2026) Published May 31, 2026**

NEW MANIFESTATIONS OF FEMALE CRIMINALITY IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION AND THEIR ANALYSIS

Abduraimova Guzal Abdunabiyevna

Senior Legal Advisor, Legal Support Group, Organizational Department, Penitentiary Colony No. 21, Department of Penitentiary Services under the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan

Abstract

This article analyzes the content, structure and modern manifestations of women's crime in the context of globalization from a criminological perspective. In particular, issues related to cybercrime, human trafficking, financial fraud, offenses committed through social networks, and women's participation in transnational organized crime are highlighted. Based on the scientific views of foreign scientists and the experience of Uzbekistan, economic, social and technological factors affecting women's crime have been identified. As a result of the study, new manifestations of women's crime have been systematized, and scientific and practical proposals have been developed to prevent them and improve preventive activities.

Keywords

women's crime, globalization, transnational crime, cybercrime, human trafficking, financial fraud, digitalization, criminological analysis, crime prevention, gender factors, social networks, organized crime.

GLOBALLASHUV SHAROITIDA AYOLLAR JINOYATCHILIGINING YANGI KO‘RINISHLARI VA ULARNING TAHLILI

Abduraimova Guzal Abdunabiyevna

O‘zbekiston Respublikasi IIV huzuridagi JIED 21-son Jazoni ijro etish koloniyasi Tashkiliy bo‘lim Yuridik ta'minlash guruhi katta yuriskonsulti

E-mail: guzalpro@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada globallashuv sharoitida ayollar jinoyatchiligining mazmuni, tarkibi va zamonaviy ko‘rinishlari kriminologik nuqtai nazardan tahlil qilingan. Xususan, kiberjinoyatchilik, odam savdosi, moliyaviy firibgarlik, ijtimoiy tarmoqlar orqali sodir etilayotgan huquqbuzarliklar hamda

transmilliy uyushgan jinoyatchilikda ayollarning ishtiroki bilan bog‘liq masalalar yoritilgan. Xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari va O‘zbekiston tajribasi asosida ayollar jinoyatchiligiga ta’sir etuvchi iqtisodiy, ijtimoiy va texnologik omillar aniqlangan. Tadqiqot natijasida ayollar jinoyatchiligining yangi ko‘rinishlari tizimlashtirilib, ularning oldini olish hamda profilaktika faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: ayollar jinoyatchiligi, globallashuv, transmilliy jinoyatchilik, kiberjinoyatchilik, odam savdosi, moliyaviy firibgarlik, raqamlashtirish, kriminologik tahlil, jinoyatchilik profilaktikasi, gender omillari, ijtimoiy tarmoqlar, uyushgan jinoyatchilik.

НОВЫЕ ПРОЯВЛЕНИЯ ЖЕНСКОЙ ПРЕСТУПНОСТИ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ И ИХ АНАЛИЗ

Абдураимова Гузаль Абдунабиевна

Старший юрисконсульт, Группы правового обеспечения, Организационного отдела Колонии исполнения наказаний № 21 Департамента исполнения наказаний при Министерстве внутренних дел Республики Узбекистан

Аннотация. В данной статье с криминологической точки зрения анализируются содержание, структура и современные проявления женской преступности в контексте глобализации. В частности, освещаются вопросы, связанные с киберпреступностью, торговлей людьми, финансовым мошенничеством, преступлениями, совершаемыми через социальные сети, и участием женщин в транснациональной организованной преступности. На основе научных взглядов зарубежных ученых и опыта Узбекистана выявлены экономические, социальные и технологические факторы, влияющие на женскую преступность. В результате исследования систематизированы новые проявления женской преступности и разработаны научно-практические предложения по их предотвращению и совершенствованию профилактической деятельности.

Ключевые слова: женская преступность, глобализация, транснациональная преступность, киберпреступность, торговля людьми, финансовое мошенничество, цифровизация, криминологический анализ,

профилактика преступности, гендерные факторы, социальные сети, организованная преступность.

KIRISH

XXI asrda globallashuv jarayonlari dunyo mamlakatlari o‘rtasidagi iqtisodiy, siyosiy, madaniy va axborot aloqalarining mislsiz darajada kengayishiga olib keldi. Transport va kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi, internet tarmog‘ining ommalashuvi hamda xalqaro migratsiya oqimlarining kuchayishi natijasida davlatlar o‘rtasidagi chegaralar nisbatan shartli tus olmoqda. Mazkur jarayonlar jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi bilan bir qatorda, jinoyatchilikning yangi shakllari va ko‘rinishlarining paydo bo‘lishiga ham zamin yaratmoqda. So‘nggi yillarda jinoyatchilikning gender jihatlari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar ayollar jinoyatchiligi tarkibi va xarakterida sezilarli o‘zgarishlar yuz berayotganligini ko‘rsatmoqda. Avvalgi davrlarda ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar asosan o‘g‘rilik, firibgarlik, oilaviy-maishiy mojarolar bilan bog‘liq huquqbuzarliklar hamda iqtisodiy qiyinchiliklar oqibatida sodir etilgan jinoyatlar bilan tavsiflangan bo‘lsa, bugungi kunda ularning kiberjinoyatchilik, transmilliy uyushgan jinoyatchilik, noqonuniy migratsiya, odam savdosi va moliyaviy firibgarlik kabi murakkab jinoyat turlaridagi ishtiroki ortib bormoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi globallashuv sharoitida ayollar jinoyatchiligining yangi ko‘rinishlarini aniqlash, ularning shakllanish omillarini tahlil qilish hamda xorijiy va milliy tajriba asosida mavjud muammolar va ularning yechimlarini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

– ayollar jinoyatchiligi bo‘yicha xorijiy ilmiy qarashlarni tahlil qilish;
– globallashuvning ayollar jinoyatchiligiga ta’sir etuvchi asosiy omillarini aniqlash;
– ayollar jinoyatchiligining zamonaviy va yangi ko‘rinishlarini tavsiflash;
– O‘zbekiston tajribasini xalqaro amaliyot bilan qiyosiy tahlil qilish;
– jinoyatchilik profilaktikasini takomillashtirish yuzasidan ilmiy takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti sifatida globallashuv sharoitida shakllanayotgan ayollar jinoyatchiligi bilan bog‘liq ijtimoiy-huquqiy munosabatlar tanlangan bo‘lsa, tadqiqot

predmeti ayollar tomonidan sodir etilayotgan zamonaviy jinoyat turlari, ularning kriminologik xususiyatlari va profilaktika mexanizmlaridan iboratdir.

Mazkur tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, unda ayollar jinoyatchiligiga faqat an’anaviy jinoyatlar nuqtai nazaridan emas, balki globallashuv, raqamlashtirish va transmilliy jarayonlar bilan bog‘liq yangi tahdidlar nuqtai nazaridan yondashiladi. Bu esa jinoyatchilikning oldini olish tizimini zamonaviy talablar asosida takomillashtirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ayollar jinoyatchiligi muammosi kriminologiya fanining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda globallashuv, raqamlashtirish va transmilliy integratsiya jarayonlarining jadallashuvi natijasida ayollar jinoyatchiligining mazmuni va ko‘rinishlarida sezilarli o‘zgarishlar yuz bermoqda. Shu sababli mazkur masala xorijiy olimlar tomonidan keng tadqiq etilmoqda. Ayollar jinoyatchiligini o‘rganishga bag‘ishlangan zamonaviy ilmiy tadqiqotlarni shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin: birinchisi – ayollarning transmilliy uyushgan jinoyatchilikdagi ishtiroki, ikkinchisi – kiberjinoyatchilik va raqamli muhitdagi noqonuniy faoliyat, uchinchisi esa – globallashuvning ayollar jinoyatchiligiga ta’siri masalalaridir. Transmilliy uyushgan jinoyatchilik doirasida ayollarning o‘rni va rolini o‘rganishda Y.Dandurand va V.Chinning ilmiy ishlari alohida ahamiyatga ega. Mualliflarning fikricha, global migratsiya oqimlari, xalqaro mehnat bozori va transchegaraviy iqtisodiy munosabatlarning kengayishi natijasida ayollar nafaqat jinoyat qurboni, balki ayrim hollarda jinoiy tarmoqlarning faol ishtirokchisiga ham aylanmoqda [1]. Tadqiqotchilar odam savdosi, noqonuniy migratsiya va jinsiy ekspluatatsiya bilan bog‘liq jinoyatlarda ayollarning vositachi, yollovchi va nazoratchi sifatida qatnashayotganligini ta’kidlaydilar. Beth Simmons va hammualliflar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda transmilliy jinoyatchilikning eng xavfli ko‘rinishlaridan biri sifatida odam savdosi muammosi tahlil qilingan. Tadqiqotchilar globallashuv jarayonlari natijasida inson resurslarining noqonuniy harakati kuchayganligini, bunda ayollar va voyaga yetmaganlarning asosiy xavf guruhini tashkil etishini qayd etadilar [2]. Mualliflarning fikricha, xalqaro hamkorlik va milliy

qonunchilikning uyg‘unlashuvi odam savdosiga qarshi kurashning muhim omili hisoblanadi. Globallashuv va jinoyatchilik o‘rtasidagi bog‘liqlik masalasi Emilio Viano tomonidan chuqur tadqiq qilingan. Uning ta’kidlashicha, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi va xalqaro iqtisodiy integratsiyaning kuchayishi natijasida jinoyatchilikning yangi shakllari paydo bo‘lmoqda. Ayniqsa, internet texnologiyalaridan foydalanish orqali sodir etilayotgan jinoyatlar davlat chegaralaridan tashqariga chiqib, transmilliy xususiyat kasb etmoqda [3]. Olim zamonaviy jinoyatchilikni globallashuvning salbiy oqibatlaridan biri sifatida baholaydi va uni nazorat qilish uchun xalqaro hamkorlik mexanizmlarini rivojlantirish zarurligini asoslaydi. So‘nggi yillarda ayollar jinoyatchiligining yangi ko‘rinishlari orasida kiberjinoyatchilik alohida o‘rin egallamoqda. Jane Im va hammualliflar tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlarda internet makonida sodir etilayotgan noqonuniy harakatlar, jumladan, onlayn firibgarlik, shantaj, kiberbulling va raqamli zo‘ravonlik holatlari o‘rganilgan [4]. Tadqiqotchilar raqamli texnologiyalar rivojlanishi bilan ayollar ham ushbu turdagi jinoyatlarda faol ishtirok etayotganligini ta’kidlaydilar. Rita Simon o‘zining “Women and Crime the World Over” nomli asarida ayollar jinoyatchiligi rivojlanishini jamiyatdagi ijtimoiy mavqe o‘zgarishlari bilan bog‘laydi. Muallif ayollarning iqtisodiy va ijtimoiy hayotdagi faolligi oshgani sari ular tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarning turi va murakkabligi ham ortib borishini qayd etadi [5]. Uning fikricha, gender tengligi jarayonlari ayrim hollarda jinoyatchilik ko‘rsatkichlarining o‘zgarishiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Meda Chesney-Lind va Lisa Pasko esa ayollar jinoyatchiligini ijtimoiy tengsizlik, oilaviy muammolar, zo‘ravonlik va iqtisodiy qiyinchiliklar bilan bog‘liq holda o‘rganadilar [6]. Ularning tadqiqotlarida ayollar jinoyatchiligining asosiy sabablari sifatida ijtimoiy himoyaning yetarli emasligi, gender diskriminatsiyasi va iqtisodiy beqarorlik ko‘rsatib o‘tilgan. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, xorijiy olimlarning aksariyati ayollar jinoyatchiligini endilikda faqat an’anaviy jinoyatlar doirasida emas, balki transmilliy uyushgan jinoyatchilik, kiberjinoyatchilik, odam savdosi va moliyaviy firibgarlik kabi zamonaviy tahdidlar bilan bog‘liq holda o‘rganmoqdalar. Bu esa globallashuv sharoitida ayollar jinoyatchiligining yangi ko‘rinishlari shakllanayotganligini tasdiqlaydi hamda ushbu

yo‘nalishda kompleks kriminologik tadqiqotlarni amalga oshirish zaruratini ko‘rsatadi.

NATIJALAR

Globallashuv jarayonlari natijasida dunyo mamlakatlari o‘rtasidagi iqtisodiy, ijtimoiy va axborot aloqalarining kengayishi jinoyatchilikning shakllari va mexanizmlariga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalari, xalqaro migratsiya, elektron tijorat va global moliyaviy tizimlarning rivojlanishi natijasida ayollar jinoyatchiligining yangi ko‘rinishlari vujudga kelmoqda. Ushbu holat ayollar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarning nafaqat son jihatdan, balki sifat jihatidan ham murakkablashib borayotganligini ko‘rsatadi. So‘nggi yillarda kiberjinoyatchilik eng tez rivojlanayotgan jinoyat turlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Internet texnologiyalarining keng tarqalishi natijasida firibgarlik, elektron to‘lov tizimlari bilan bog‘liq jinoyatlar, shaxsiy ma’lumotlarni o‘g‘irlash, phishing va boshqa noqonuniy harakatlar soni ortib bormoqda. Jane Im va hammualliflarning tadqiqotlariga ko‘ra, raqamli texnologiyalarning rivojlanishi ayollarning internet makonidagi faolligini oshirgan bo‘lib, ayrim hollarda bu holat ularning kiberjinoyatlarga jalb qilinishiga sabab bo‘lmoqda [7]. Xususan, ijtimoiy tarmoqlar orqali amalga oshiriladigan moliyaviy firibgarlik, noqonuniy reklama va elektron savdo bilan bog‘liq jinoyatlarda ayollar ishtiroki kuzatilmoqda. Kiberjinoyatchilikning asosiy xususiyati shundaki, u davlat chegaralarini tan olmaydi. Shu sababli bunday jinoyatlar ko‘pincha transmilliy xarakter kasb etadi va xalqaro hamkorlikni talab qiladi. Transmilliy jinoyatchilikning eng xavfli ko‘rinishlaridan biri odam savdosi hisoblanadi. BMT ma’lumotlariga ko‘ra, odam savdosi qurbonlarining katta qismini ayollar va bolalar tashkil etadi. Shu bilan birga, ayrim hollarda ayollar ushbu jinoiy faoliyatning tashkilotchisi yoki vositachisi sifatida ham ishtirok etmoqda. Y. Dandurand va V. Chinlarning fikricha, transmilliy jinoiy guruhlar ayollardan boshqa ayollarni yollash va ularning ishonchini qozonish vositasi sifatida foydalanadilar [1]. Bu esa jinoyatchilar uchun odam savdosi jarayonini osonlashtiradi. Ko‘plab hollarda ayollar xorijda yuqori maoshli ish taklif qilish bahonasida boshqa ayollarni ekspluatatsiya maqsadida chet davlatlarga yuborishda ishtirok etadilar. Globallashuv natijasida migratsiya oqimlarining kuchayishi odam savdosi bilan bog‘liq xavflarni

yanada oshirmoqda. Shu sababli xalqaro tashkilotlar ushbu jinoyat turiga qarshi kurashni ustuvor vazifa sifatida belgilamoqda.

Elektron tijorat va raqamli moliya tizimlarining rivojlanishi yangi iqtisodiy imkoniyatlarni yaratishi bilan birga, moliyaviy firibgarlik xavfini ham oshirmoqda. Bugungi kunda bank kartalari, elektron hamyonlar, kriptovalyutalar va internet-do‘konlar orqali sodir etilayotgan firibgarlik jinoyatlari soni ortib bormoqda. R. Simonning ta’kidlashicha, ayollarning iqtisodiy va tadbirkorlik faoliyatidagi ishtiroki kengaygani sari ular tomonidan sodir etilayotgan iqtisodiy jinoyatlar ko‘lami ham o‘zgarib bormoqda [5]. Ayrim hollarda moliyaviy savodxonlik va texnologik bilimlardan noqonuniy maqsadlarda foydalanish holatlari uchramoqda. Mazkur turdagi jinoyatlar ko‘pincha internet orqali amalga oshirilgani sababli ularni aniqlash va fosh etish murakkab hisoblanadi.

Xalqaro transport va logistika tizimlarining rivojlanishi narkotik moddalar savdosining yangi usullarini shakllantirdi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ayrim ayollar narkotik moddalarni bir davlatdan ikkinchi davlatga noqonuniy olib o‘tishda "kuryer" sifatida jalb qilinmoqda [3]. Emilio Vianoning qayd etishicha, transmilliy jinoiy guruhlar ayollardan huquqni muhofaza qiluvchi organlar e’tiborini kamroq tortuvchi subyekt sifatida foydalanishga harakat qiladilar. Natijada ayollar xalqaro narkobiznesning ayrim bo‘g‘inlarida ishtirok etayotganligi kuzatilmoqda.

Telegram, Instagram, Facebook va boshqa ijtimoiy platformalarning ommalashuvi jinoyatchilikning yangi shakllarini yuzaga keltirdi. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar orqali noqonuniy moliyaviy loyihalarni targ‘ib qilish, soxta investitsiya dasturlarini tashkil etish, firibgarlik sxemalarini yuritish kabi holatlar uchramoqda. Mutaxassislarning fikricha, internet foydalanuvchilarining psixologik xususiyatlaridan foydalanish orqali amalga oshiriladigan bunday jinoyatlar an’anaviy firibgarlikka nisbatan murakkabroq hisoblanadi [4]. Ayniqsa, anonimlik imkoniyatlari jinoyatchilar faoliyatini yashirishga yordam bermoqda.

O‘zbekiston tajribasi va ayollar jinoyatchiligining kriminologik tahlili

Bugungi kunda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, raqamlashtirish jarayonlari va xalqaro integratsiyaning kuchayishi jamiyat

hayotining barcha sohalariga ta’sir ko‘rsatmoqda. Ushbu jarayonlar ayollarning ijtimoiy faolligi, iqtisodiy mustaqilligi va mehnat bozoridagi ishtirokini oshirayotgan bo‘lsa-da, ayrim hollarda ularning turli huquqbuzarlik va jinoyatlarga jalb etilish xavfini ham kuchaytirmoqda. Kriminologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda ayollar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlar tarkibi so‘nggi yillarda sezilarli o‘zgarishga uchramoqda. Avvallari ayollar jinoyatchiligida asosan o‘g‘rilik, firibgarlik, o‘zlashtirish va rastrata qilish, oilaviy-maishiy mojarolar bilan bog‘liq huquqbuzarliklar ustunlik qilgan bo‘lsa, bugungi kunda axborot texnologiyalari va internet tarmog‘idan foydalanish bilan bog‘liq jinoyatlar soni ortib bormoqda. Mazkur holatni globallashuvning bevosita natijasi sifatida baholash mumkin. Chunki internet va zamonaviy kommunikatsiya vositalari jinoiy faoliyatni amalga oshirish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Shu bilan birga, ushbu jinoyatlarni sodir etish uchun geografik chegaralarning mavjud emasligi ularning ijtimoiy xavfliligini yanada oshirmoqda. Globallashuv sharoitida ayollar jinoyatchiligining transformatsiyalashuv jarayonlarini o‘rganish maqsadida Y.Dandurand, V.Chin, B. Simmons, E. Viano va J. Im tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar mazmunan tahlil qilindi. Tadqiqot natijalarini umumlashtirish va tizimlashtirish asosida ayollar jinoyatchiligining zamonaviy ko‘rinishlari, ularning shakllanish omillari hamda ijtimoiy xavflilik darajasi muallif tomonidan jadval ko‘rinishida ishlab chiqildi (1-jadval).

1-jadval

Globallashuv sharoitida ayollar jinoyatchiligining yangi ko‘rinishlari va ularning xususiyatlari

Jinoyat turi	Globallashuv omili	Ayollarning ishtirok shakli	Ijtimoiy xavflilik darajasi
Kiberjinoyatchilik	Internet va raqamlashtirish	Onlayn firibgarlik, phishing, elektron to‘lovlar bilan bog‘liq jinoyatlar	Yuqori
Odam savdosi	Migratsiya	Vositachi, yollovchi yoki	Juda yuqori

	jarayonlari	tashkilotchi	
Moliyaviy firibgarlik	Elektron tijorat rivojlanishi	Soxta investitsiya va onlayn savdo sxemalari	Yuqori
Narkotik moddalar kontrabandasi	Xalqaro transport va logistika	Kuryer yoki vositachi	Juda yuqori
Ijtimoiy tarmoqlar orqali jinoyatlar	Raqamli kommunikatsiyalar	Firibgarlik va noqonuniy reklama	O‘rta-yuqori

1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, globallashuv natijasida ayollar jinoyatchiligi tarkibida kiberjinoyatchilik, moliyaviy firibgarlik va odam savdosi bilan bog‘liq jinoyatlar salmog‘i ortib bormoqda. Mazkur jinoyatlar an’anaviy jinoyatlardan farqli ravishda transmilliy xususiyatga ega bo‘lib, ularni aniqlash va oldini olish murakkabligi bilan tavsiflanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning ochiq ma’lumotlari tahlili ayollar jinoyatchiligi tarkibida muayyan o‘zgarishlar yuz berayotganligini ko‘rsatadi. Quyidagi diagrammada ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar dinamikasi aks ettirilgan.



1-rasm. O‘zbekistonda ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar dinamikasi (2024–2025-yillar)

O‘zbekistonda ayollar jinoyatchiligi tarkibida yuz berayotgan o‘zgarishlar bevosita globallashuv va raqamlashtirish jarayonlari bilan bog‘liq. Agar ilgari ayollar jinoyatchiligida an’anaviy mulkiy jinoyatlar ustun bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunda

intellektual va texnologik xarakterdagi jinoyatlar ulushining ortishi kuzatilmoqda. Ayollar jinoyatchiligini faqat huquqiy muammo sifatida baholash yetarli emas. Mazkur hodisa iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy va psixologik omillar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, unga qarshi kurashishda kompleks yondashuvni qo‘llash zarur. Shu sababli ayollar jinoyatchiligining oldini olishda nafaqat jazo choralarini kuchaytirish, balki ayollarning bandligini ta’minlash, raqamli savodxonligini oshirish, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish va oilaviy qadriyatlarni mustahkamlashga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Globallashuv sharoitida ayollar jinoyatchiligining yangi ko‘rinishlari shakllanib borayotganligi jinoyatchilikka qarshi kurashish va uning oldini olish tizimini takomillashtirishni talab etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy ayollar jinoyatchiligi nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik va texnologik omillar bilan ham uzviy bog‘liqdir. Shu sababli mazkur muammoga kompleks yondashuv asosida yechim ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

MUHOKAMA

Ayollar tomonidan sodir etilayotgan ko‘plab jinoyatlar uzoq muddat davomida shakllangan ijtimoiy muammolar natijasida yuzaga keladi. Shu bois jinoyat sodir etilgandan keyingi jazolash choralaridan ko‘ra, uning oldini olishga qaratilgan mexanizmlarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun mahallalarda, ta’lim muassasalarida va mehnat jamoalarida ijtimoiy xavf guruhiga kiruvchi ayollar bilan individual ishlash tizimini yanada takomillashtirish lozim. Ayniqsa, og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan, ishsiz, migratsiyadan qaytgan yoki oilaviy muammolarga duch kelayotgan ayollar bilan manzilli profilaktik ishlarni tashkil etish zarur. Profilaktika inspektorlari, xotin-qizlar faollari, psixologlar va ijtimoiy xodimlar hamkorligida "ijtimoiy xavf xaritasi"ni ishlab chiqish ayollar jinoyatchiligini kamaytirishda samarali vosita bo‘lishi mumkin.

Globallashuvning asosiy natijalaridan biri raqamli texnologiyalarning kundalik hayotga chuqur kirib borishi hisoblanadi. Shu bilan birga, kiberjinoyatchilik ham jadal rivojlanmoqda.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi taklif ilgari suriladi:

– umumta’lim maktablari, texnikumlar, akademik litseylar va oliy ta’lim muassasalarida "Kiberxavfsizlik asoslari" bo‘yicha maxsus o‘quv modullarini joriy etish;

– ayollar uchun bepul raqamli savodxonlik kurslarini tashkil etish;

– internet firibgarligi va kiberjinoyatlar bo‘yicha muntazam targ‘ibot ishlarini olib borish;

– ijtimoiy tarmoqlarda kiberxavfsizlikka oid maxsus axborot kampaniyalarini yo‘lga qo‘yish.

Mazkur choralar ayollarning kiberjinoyat qurboniga aylanishi hamda bunday jinoyatlarga jalb qilinishining oldini olishga xizmat qiladi.

Globallashuv va migratsiya jarayonlari odam savdosi xavfini oshirmoqda. Shu sababli ushbu yo‘nalishda mavjud mexanizmlarni takomillashtirish zarur.

Birinchidan, xorijga ishlash maqsadida ketayotgan fuqarolar, ayniqsa ayollar uchun majburiy huquqiy va axborot maslahatlarini tashkil etish lozim.

Ikkinchidan, odam savdosi qurbonlarini reabilitatsiya qilish va ularni jamiyatga qayta integratsiya qilish tizimini kuchaytirish talab etiladi.

Uchinchidan, migratsiya bilan bog‘liq xavf omillari mavjud hududlarda profilaktik tadbirlarni kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

Muallifning fikricha, odam savdosiga qarshi kurashishda faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar emas, balki nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyati institutlarining faol ishtiroki ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Kriminologik tadqiqotlar iqtisodiy omillar ayollar jinoyatchiligining asosiy sabablaridan biri ekanligini ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, ishsizlik, daromad manbalarining cheklanganligi va moliyaviy qaramlik ayollarning noqonuniy faoliyatga jalb qilinish xavfini oshiradi. Ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash dasturlarini kengaytirish, kasb-hunarga o‘qitish markazlari faoliyatini rivojlantirish, ehtiyojmand ayollar uchun imtiyozli kredit va subsidiya dasturlarini takomillashtirish, masofaviy ish bilan bandlik imkoniyatlarini kengaytirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Mazkur choralar ayollarning iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlash orqali jinoyatchilikning iqtisodiy omillarini kamaytirishga xizmat qiladi.

Ayollar jinoyatchiligining ayrim zamonaviy ko‘rinishlari transmilliy xarakterga ega bo‘lib, ularni faqat milliy darajada bartaraf etish qiyin hisoblanadi. Kiberjinoyatchilikka qarshi kurash bo‘yicha xalqaro ma’lumot almashuv tizimlarini rivojlantirish, odam savdosiga qarshi kurashish bo‘yicha qo‘shma dasturlarni amalga oshirish, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda ilmiy tadqiqotlar olib boorish, xorijiy tajribani milliy amaliyotga joriy etish muhim ahamiyatga ega.

Taqiqotning ilmiy yangiligi

1. Globallashuv sharoitida ayollar jinoyatchiligining zamonaviy ko‘rinishlari tizimlashtirildi.

2. Ayollar jinoyatchiligining shakllanishiga ta’sir etuvchi iqtisodiy, ijtimoiy va texnologik omillar kompleks ravishda tahlil qilindi.

3. Kiberjinoyatchilik, odam savdosi va ijtimoiy tarmoqlar bilan bog‘liq jinoyatlar ayollar jinoyatchiligining yangi ko‘rinishlari sifatida asoslab berildi.

4. O‘zbekiston sharoitida ayollar jinoyatchiligini profilaktika qilishning ustuvor yo‘nalishlari ishlab chiqildi.

5. Ayollar jinoyatchiligini kamaytirishga qaratilgan amaliy taklif va tavsiyalar tizimi taklif etildi.

Mazkur takliflarning amaliyotga joriy etilishi ayollar jinoyatchiligining oldini olish, jinoyatlarning yangi shakllariga qarshi samarali kurashish hamda jamiyatda huquqiy xavfsizlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

XULOSA

Globallashuv jarayonlari zamonaviy jamiyat taraqqiyotining ajralmas qismiga aylangan bo‘lib, u iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy munosabatlar bilan bir qatorda jinoyatchilikning mazmuni va shakllariga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Globallashuv sharoitida ayollar jinoyatchiligi an’anaviy ko‘rinishlardan asta-sekin zamonaviy va murakkab shakllarga o‘tmoqda. Xorijiy olimlar Y. Dandurand, V. Chin, E. Viano, B. Simmons, R. Simon, M. Chesney-Lind va boshqa tadqiqotchilarning ilmiy ishlari tahlili shuni ko‘rsatdiki, bugungi kunda ayollar jinoyatchiligini faqat mulkiy yoki maishiy jinoyatlar doirasida baholash yetarli emas. Zamonaviy sharoitda ayollar kiberjinoyatchilik, transmilliy uyushgan jinoyatchilik, odam savdosi,

noqonuniy migratsiya, moliyaviy firibgarlik va ijtimoiy tarmoqlar bilan bog‘liq jinoyatlar kabi yangi yo‘nalishlarda ham uchramoqda. Ayollar jinoyatchiligining shakllanishiga iqtisodiy, ijtimoiy, psixologik va texnologik omillar kompleks tarzda ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, raqamlashtirish jarayonlari, internet texnologiyalarining rivojlanishi va xalqaro migratsiya oqimlarining kuchayishi ayollar jinoyatchiligining yangi ko‘rinishlarini yuzaga keltirayotgan asosiy omillar sifatida namoyon bo‘lmoqda.

O‘zbekiston misolida olib borilgan tahlillar ham mazkur tendensiyalarning milliy darajada kuzatilayotganligini ko‘rsatdi. Mamlakatda ayollar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlar tarkibida firibgarlik, axborot texnologiyalari bilan bog‘liq huquqbuzarliklar va transmilliy xarakterga ega jinoyatlarning uchrashi zamonaviy kriminologik tahdidlarning mavjudligini tasdiqlaydi. Ayollar jinoyatchiligiga qarshi kurashishda faqat jazolash choralariga tayanish yetarli emasligi aniqlandi. Jinoyatlarning oldini olish maqsadida ayollar bandligini ta’minlash, ularning huquqiy va raqamli savodxonligini oshirish, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish hamda kiberxavfsizlik madaniyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dandurand Y., Chin V. *Women and Transnational Organized Crime*. Vancouver: International Centre for Criminal Law Reform and Criminal Justice Policy, 2001.
2. Simmons B., Lloyd P., Stewart B. *The Global Diffusion of Law: Transnational Crime and Human Trafficking*. American Political Science Review, 2018.
3. Viano E.C. *Globalization, Transnational Crime and State Power*. International Journal of Victimology, 2010.
4. Im J., Schoenebeck S., Razi A. *Women’s Perspectives on Harm and Justice after Online Harassment*. ACM Digital Society Conference Proceedings, 2023.
5. Simon R.J. *Women and Crime the World Over*. Lanham: Lexington Books, 2014.
6. Chesney-Lind M., Pasko L. *Girls, Women and Crime*. 5th Edition. Thousand Oaks: Sage Publications, 2018.
7. United Nations. *Declaration on the Elimination of Violence against Women*. New York: United Nations, 1993.

8. United Nations Office on Drugs and Crime (UNODC). *Global Report on Trafficking in Persons*. Vienna: UNODC, 2024.

9. United Nations Office on Drugs and Crime (UNODC). *Global Study on Homicide: Gender-related Killing of Women and Girls*. Vienna: UNODC, 2023.

10. United Nations. *The World's Women: Trends and Statistics*. New York: United Nations, 2020.

11. Heidensohn F. *Women and Crime*. London: Macmillan Press, 2008.

12. Adler F. *Sisters in Crime: The Rise of the New Female Criminal*. New York: McGraw-Hill, 1975.

13. Smart C. *Women, Crime and Criminology*. London: Routledge, 2002.

14. UN Women. *Progress on the Sustainable Development Goals: Gender Snapshot 2024*. New York: UN Women, 2024.

15. Steffensmeier D., Allan E. Gender and Crime: Toward a Gendered Theory of Female Offending // Annual Review of Sociology. 1996. Vol. 22.

16. Miller J. *One of the Guys: Girls, Gangs and Gender*. Oxford University Press, 2001.

17. Walklate S. *Gender, Crime and Criminal Justice*. London: Routledge, 2013.

18. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023.

19. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. – Toshkent, 2025.

20. O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi. Jinoyatchilik profilaktikasi sohasidagi ilmiy-amaliy tadqiqotlar to‘plami. Toshkent, 2024.

21. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Huquqbuzarlik va jinoyatchilik statistik ko‘rsatkichlari. Toshkent, 2024.

22. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Inson huquqlari bo‘yicha vakil (Ombudsman) ma’ruzalari. Toshkent, 2024.

23. Temirova M.M. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda ayollar jinoyatchiligining holati // Zamonaviy kriminologiya muammolari. Toshkent, 2025.

24. Xotin-qizlar qo‘mitasi. O‘zbekistonda xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha milliy hisobot. Toshkent, 2024.